

14. 5 ga bo'linish alomati

Yondosh mavzu:
O'zbekistondagi daryolar

Bo'luvchi, sondagi
oxirgi raqam, yaxlit son



1. O'zbekistondagi ba'zi daryolarning nomlarini aniqlang.

A $18 + 3 \cdot 4$

G $60 - 7 \cdot 8$

Z $78 : 3 + 5$

O $75 : (18 - 13)$

K $(11 + 4) \cdot 3$


N $81 : 3 - 2$

R $42 : 6 + 21$

S $100 - 7 - 73$

H $84 : 14 + 6 \cdot 2$

I $64 : 4 + 8$



Kosonsoy daryosining nomini daftaringizga shifrlang. Shifrlangan so'zdagi barcha sonlarda qanday umumiylik bor?

5 ga bo'linish alomati

Agar son 0 yoki 5 raqami bilan tugasa,
u holda shu son 5 ga bo'linadi.

14. 5 ga bo'linish alomati



2. {2, 3, 5, 7, 10, 12, 15, 20, 23, 50, 55, 102, 110} sonlar to'plamidan
- 10 ga karrali sonlarni;
 - 5 ga karrali sonlarni ko'chirib yozing.
- Bu sonlar guruhlari o'rtasida qanday bog'liqlikni ko'rish mumkin?



Foydali uchlikni yodda tuting!

$$2 \cdot 5 = 10$$

$$4 \cdot 25 = 100$$

$$8 \cdot 125 = 1\,000$$



3. Ko'paytirishning qulay usullaridan foydalanib hisoblang.

a) $6 \cdot 5 \cdot 2$

b) $25 \cdot 4 \cdot 7$

d) $3 \cdot 6 \cdot 5$

e) $2 \cdot 27 \cdot 5$

f) $8 \cdot 3 \cdot 5$

g) $8 \cdot 7 \cdot 125$



4. Taqqoslang.

a) $a \cdot 300$ ☐ $300 \cdot a$

b) $(400 + 60) \cdot y$ ☐ $460 \cdot y$

b) $(x \cdot 100) \cdot 2$ ☐ $x \cdot 200$

e) $56 \cdot 0$ ☐ $560 \cdot 1$



5. Tenglamalarni soddalashtiring va yeching.

a) $5 \cdot x \cdot 12 = 420$

b) $y \cdot 8 \cdot 125 = 3\,000$

d) $z : 18 = 4 \cdot 5 \cdot 5$

e) $t \cdot 7 \cdot 5 = 28 \cdot 25$



6. Daryo bo'yiga sol tushirildi.

a) Agar daryo oqimining tezligi 5 km/h bo'lsa, sol 1 sutkada qancha masofani bosib o'tadi?

b) 430 km masofani suzib o'tish uchun qancha vaqt kerak?

d) Daryoning turli qismlarida oqim tezligi har xil. Daryoning tog'li hududida sol 9 soatda


45 km masofani, tekis hududida esa shu vaqt ichida 27 km masofani suzib o'tadi. Solning tezligi tekis hududda qanchaga kamaydi?



14. 5 ga bo'linish alomati



7. Sinfdoshingiz bilan o'ynang. Zanjirdan o'ting. Kim birinchi bo'ladi?



8. Ifodalarning qiymatini o'zingiz uchun qulay usulda og'zaki hisoblang.

a) $9 \cdot 2 \cdot 5$

b) $37 \cdot 25 \cdot 4$

d) $2 \cdot 302 \cdot 5$

e) $4 \cdot 25 \cdot 5$

f) $125 \cdot 3 \cdot 8$

g) $4 \cdot 16 \cdot 125$



9. Paromga 6 ta yuk mashinasini yoki 10 ta yengil mashinani joylash mumkin. Payshanba kuni to'liq yuklangan parom daryoni 5 marta kesib o'tgan va 42 ta mashinani boshqa qirg'oqqa o'tkazib qo'ygan. Ular orasida nechitasi yuk mashinasi bo'lgan?



10. O'zbekistondagi daryolardan birining nomini aniqlang.

A $(52 + 98) \cdot 6$

M $(560 + 390) - 280 \cdot 2$

O $150 \cdot 2 \cdot 5$

P $185 + 185 + 185 + 185 + 158$

K $786 \cdot 0 + 85 \cdot 10$

S $760 \cdot 1 - 95 : 5 \cdot 8$

L $(923 - 798) \cdot 8$

F $1\,000 - (124 \cdot 8 + 8)$

898	608	850	1 500	390
-----	-----	-----	-------	-----



11. Sayyohlar oqim tezligi 2 km/h bo'lgan daryo bo'ylab 72 km suzishlari kerak. Agar ular suzish davomida har biri 80 minutdan 5 marta tanaffus qilsalar, ularning sayohati qancha vaqt davom etgan?